

**SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF  
ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE PERIOD OF RENEWAL OF OUR  
COUNTRY**

Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich,  
Sotsiologiya kafedrası mudiri, f.f.d, (DSc), professor,  
Farg‘ona davlat universiteti

Karimov O‘lmasbek Umaraliyevich,  
tayanch doktorant, Farg‘ona davlat universiteti

**Annotation:**

The article explores the problem on the basis of scientific-theoretical analysis of the formation and improvement of entrepreneurial skills in the minds of our citizens of modernizing processes carried out in Uzbekistan, as well as the development of a new socio-economic system, socio-philosophical views and defines the tasks arising from recommendations and conclusions.

**Keywords:** citizens, entrepreneurship, family entrepreneurship, female entrepreneur, social class, philosophical analysis, modernization, transformation.

**KIRISH**

Jahon mamlakatlarida biznesni yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va erkinliklarini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Global iqtisodiy munosabatlar va savdo aloqalarining jadallashuvi, xalqaro tadbirkorlik integrasiyalashuvining rivojlanishi innovasion faoliyat asosida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Ayni paytda kichik biznesdan tortib transmilliy korporasiyalarning raqobatbardoshligi tadbirkorlik madaniyati tamoyillari va ishbilarmonlik muhitining shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Bu esa umumbashariy tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish uchun innovasion usullarni o‘rganish dolzarbligini taqozo etmoqda. Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish, fuqarolarimiz biznes tafakkurini mustahkamlab borishga katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. “Oilaviy tadbirkorlik”, “xususiy tadbirkorlik”, “o‘rta biznes”, “kichik biznes”, “ishbilarmonlik muhiti”, “ayol tadbirkor”, “aholi bandligi” kabi ilmiy-falsafiy atama va tushunchalarni ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tadqiq etish imkoniyatlari kengaymoqda. Jamiyatning turli qatlami, xususan yoshlar bandligini ta‘minlashda ularning iqtisodiy erkinlikka erishishlari, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishda kichik va o‘rta biznes, ya‘ni tadbirkorlik faoliyati orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o‘zgarishlarga erishishi bilan izohlanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [5.] 2017-yil 19-iyun PF-5087-son Farmonida mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi. Tadbirkorlik faoliyatiga hukumatning e‘tibori diagrammasini inobatga olib, soha rivojiga ta‘sir etuvchi

omillar va uning sotsiologik xususiyatlarini kuzatish va tahlil qilish, shu asosda faoliyat kompleksini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

## ASOSIY QISM

Tadbirkorlik faoliyati mavzusi doirasida o'rganilgan ilmiy adabiyot va manbalarning kompleks tahlilini natijalari keyingi yillarda tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu mavzuning maqsad va ob'yektidan kelib chiqib, uning muhimligi tadbirkorlikni mahalliy sharoit va milliylik nuqtai nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ilmiy tadqiqini taqozo etadi. Muammo sotsiologik asosda o'rganilar ekan, tadbirkorlik madaniyati institutsionallashuvining xalqaro tajriba, sohani rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishdagi ijtimoiy ko'rsatkichlari, o'rta va kichik biznesni targ'ib etishda taraqqiyot omili xususiyatlari tadqiqot ishining tarkibiy qismini tashkil etdi.

Tadbirkorlik faoliyatining nazariy-metodologik jihatlari shakllantirish va empirik tadqiq etish tadqiqotchilar e'tiborini barcha davrlarda o'ziga jalb etgan. XX asrda T.Shul'ts, G.Bekker, D.Bellning ilmiy asarlarida, R.Kantil'on, J.Sey, A.Smit singari tadbirkorlikka asos solgan olimlar, V.Zombart, Y.Shumpeter asarlaridan F.Nayt, L.Mizes, I.Kirtsner va F.Xayeklarning izlanishlarigacha tadbirkorlikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy hayot sub'ekti sifatida o'rganish lozimligi ta'kidlanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy tomonlari klassik faylasuf va sotsiologlar E.Dyurkgeym, M.Veber, T.Parsons, P.A.Sorokin, E.Giddens va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadbirkor ijtimoiy taraqqiyotning belgilovchisi sifatida iqtisodiy va sotsiologik tadqiqotlarda ham keng tahlil qilingan. M.Bekmurodov, R.A.Ubaydullaeva, N.Aliqoriev, M.Ganieva, R.T.Ubaydullaeva, A.Umarov, A.Xolbekov, Sh.Sodiqova, T.Matibaev, A.Seitov, O.Abduazimov, B.Farfiev, K.Kalanov, N.Latipova, T.Musin singari sotsiolog olimlar, F.Akramov, Sh.Zaynutdinov, D.Trostyanskiy, A.Taksanov, N.Tuxliev, A.X.Xikmatov kabi o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar zamonaviy bosqichda tadbirkorlik rivojlanishining turli jihatlari tadqiq etishgan, ularning asarlarida tadbirkorlikning ijtimoiy tomonlari, faoliyatning iqtisodiy shart-sharoitlari, davlat hokimiyati va sheriklar bilan o'zaro munosabati, tadbirkorlik faoliyati boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy jihatlari tahlil qilingan, tadbirkorlarning sotsiomadaniy tavsiflari, ularning maqsadlari, motivatsiya va xatti-harakat me'yorlariga atroflicha e'tibor qaratilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Mamlakatimizda "tadbirkorlik", "mulkiy munosabatlar", "oilaviy tadbirkorlik", "mehnat munosabatlari", "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchalari bir qator faylasuf olimlardan B.Ganiyev, N.Annayeva, A.Sayitxonov, A.So'fiyev, huquqshunos olimlardan S.Bozarov, D.Bekchanov, iqtisodchi olimlar N.Murodova, D.Yuldashevlar tomonidan o'rganildi. Yuqorida ko'rsatilgan fan vakillari mamlakatimizdagi tadbirkorlik faoliyatini falsafa, iqtisodiyot va huquqshunoslik fanlari doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan, lekin sotsiologik jihatdan kam tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini sotsiologik jihatdan tadqiq etgan olimlar qatoriga S.Xodjaev, S.Qozoqov va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Mustaqillik yillar davomida tadbirkorlikni rivojlantirishga doir 100 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga doir O'zbekiston Respublikasida 9 ta amaldagi qonun, 2 ta yangi qonun loyihalari va 10 dan ortiq qonunosti hujjatlari birlashtirilib, Tadbirkorlik kodeksining loyihasi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bir necha yildan beri kechiktirilayotgan O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga tadbirkorlar qatlami ichida o'zini o'zi tashkil qilish va birlashish singari dolzarb masalalar yetarli darajada o'rganilmagan, tadbirkorlik borlig'ining mazkur jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'p holatlarda yetarli emas, tadbirkorlar qatlamini tashkil etishning institutsional jihatlarni o'rganish ham yetarli darajada asoslanmagan, bu esa o'z navbatida tadbirkorlar qatlamining ichki tuzilish va dinamikasini institutsional jarayonlar nuqtai-nazaridan asosli o'rganish zaruriyatini belgilaydi.

Jamiyatning har bir jabhasida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi va mamlakat hayotining takomillashuvida tadbirkorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Chunki, tadbirkorlik faoliyati insonlarga kelajak sari intilish uchun qo'shimcha motivatsiya beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dastlab mulk va unga egalik qilish ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan bo'lib, har qanday mulk jamoaning mulki hisoblangan. Sababi, jamoaning iqtisodiy asosini o'zlashtiruvchi xo'jalik tashkil qilib, asosan, odamlar dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanishgan. Vaqtlar o'tib urug'chilik jamiyatining taraqqiy etishi ijtimoiy hayotda mehnat taqsimotini vujudga keltirdi, natijada, dehqonchilikdan yangi soha hunarmandchilik ajralib chiqdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ma'naviy merosi "Avesto"da ham tadbirkorlik haqida alohida ma'lumot berilgan. Bizga ma'lumki, "Avesto" nafaqat diniy balki, xalqlar tarixidan so'zlovchi manbaa bo'lib, unda Turon xalqlarining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklari to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, jamiyatning tarkibiy tuzilishi to'g'risida bir qator fikrlar uchraydi. "Qadimgi dehqonchilik mintaqalarida dastlab boshqaruv tizimining tepasida koinlar turgan. Ular "chorva va yaylov egasi". Jangchi askarlar bu oriyalar bo'lib, koinlardan keyingi mulk egalari hisoblangan"[6. 25-26.]. Bu mamlakatimiz hududlarida qadimdan mulkiy munosabatlar muntazam ravishda tartibga solib turilganligini anglatadi. Shu bilan birga, xalqaro savdo yo'llari ham vatanimiz hududlarida tadbirkorlik faoliyatining taraqqiy etishida muhim o'rin tutgan. Xususan, Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb sivilizatsiyasini bir-biriga bog'lovchi ko'priklar vazifasini bajargan bo'lsa, bu bevosita tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda islohotlar sharoitida aholi o'rtasida xususiy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, har qanday jamiyat bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida mulkiy munosabatlarni tartibga solgan holda xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirishi qonuniyat hisoblanadi. Shu sababdan ham O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashdek muhim strategiyani amalga oshirish jarayonida jamiyat sotsial strukturasi mulkdorlar sinfini shakllantirish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: "... o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy, eng katta maqsadi, ustuvor yo'nalishi O'zbekistonda

haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iboratdir. Bizning qabul qilgan barcha farmon va qarorlarimiz, qonunlarimiz, hamma ishimiz ana shu maqsadga qaratilgandir. Bu vazifalarni hal etmasdan kutilgan natijaga, hayotimizda, iqtisodiyotimizda istalgan o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi" [4. 335.].

Dunyo iqtisodiyotini rivojlantirish shuni ko'rsatsdiki, aholi bandligi va daromadlarini kengaytirishda tadbirkorlikning ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi ikki yarim yilda ellikka yaqin farmon va qarorlar qabul qilishdan maqsad ham aholi daromadini oshirish va bandligini ta'minlashga qaratilgan [1. 68.].

Jumladan, davlat tomonidan tadbirkorlar faoliyatini tashkil etish uchun qator qulayliklar yaratilgan bo'lib, ko'plab xizmatlar tartib-qoidalar soddalashtirildi. Bu borada Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi filiallari tadbirkorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish uchun tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad, tadbirkorlar bilan yuzaga keladigan nizolarni sudgacha olib bormaslikdir. Chunki, xorijiy davlatlarning tajribalaridan bizga ma'lumki, tadbirkorlar bilan bo'ladigan nizolarning 70 foizi sudgacha hal etiladi. Shuning uchun respublikada tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritib, xalqaro darajada huquqiy himoya qilish uchun biznes ombudsman lavozimi joriy qilindi.

Mamlakatimizdagi islohotlarni yanada samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 8-aprelda "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada "xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash bo'yicha institutsional va ma'muriy islohotlarni takomillashtirish va bu sohada qonun ustuvorligini ta'minlash" [2.] masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, tadbirkorlarga qulayliklar yaratish va ularning oldida turgan muammolarni hal etish maqsadida joylarda bosh vazir qabulxonalari faoliyat yurita boshladi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati shakllantirilib, unga 200 milliard so'm va 50 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi [3.]. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar xajmi oshgani hisobiga, so'nggi olti oy mobaynida tadbirkorlik sub'ektlari soni 60 mingtaga ortdi.

Tadbirkorlik ko'nikmalarga xos bo'lgan ishbilarmonlikning ijtimoiy, falsafiy jihatlarini tadqiq qilish natijasida xo'jalik faoliyatida faol ishtirok etayotgan shaxsning, tadbirkorlikning ideal modelini yaratish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu bilan birgalikda qayd qilish lozimki, O'zbekiston jamiyatining tarixiy taraqqiyoti, uning o'ziga xos madaniy rivojlanish jarayonlari mamlakatimizdagi yangi taraqqiyot davrida rivojlanayotgin tadbirkorlikning yuksalishiga asos bo'la oladi. Muammoni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilishning dolzarbligi, ya'ni milliy tadbirkorlikning ma'naviy, ahloqiy asoslarini tadqiq qilish o'zbekistonlik faylasuf olimlar tomonidan etarlicha tahlil qilinmagan, maxsus mavzu sifatida o'rganilmagan. Shuning uchun xam tadbirkorlikning ma'naviy axloqiy asoslarini mazkur tadqiqot mavzusi sifatida, uning metodologik asoslarini uning falsafiy bilimlar tizimidagi o'rni, mohiyati, amaliy ahamiyatini, madaniy jarayondagi rolini o'rganish muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida keltirilgan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar salmog'igaga qaramasdan mazkur masalaga oid maxsus tadqiqot o'tkazilmagan, ya'ni fuqarolarda tadbirkorlik ko'nikmalarining yangi nazariy-metodologik va ijtimoiy-falsafiy asoslari, O'zbekiston aholisi ongida tadbirkorlik ko'nikmalarining ilmiy-nazariy jihatlari, tadbirkorlik ko'nikmalarni ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yuksaltirishda davlat hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ahamiyatini maxsus mavzu sifatida tahlil qilinmagan. Tadbirkorlik ko'nikmasining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini mazmuni va mohiyatini fanlararo tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda tadqiq qilish zaruriyati vujudga keldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-5947775>
3. Mirziyoyev Sh. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2019 yil 24 iyul. № 150.
4. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. - Toshkent: O'zbekiston. 1997.
5. "Xalq so'zi" 2017 yil 20 iyundagi 121 (6815)-son.
6. Asqarov A. O'zbek halqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent: Universitet. 2007.
7. Ganiev, B. (2018, May). Философский анализ культуры предпринимательства. In Proceedings of the XXIII World Congress of Philosophy (Vol. 49, pp. 79-84).
8. Ganiyev, B. S. (2020). EDUCATION-PRIORITY SPHERE OF REFORM IN THE CONDITIONS OF A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2020(1), 106-111.
9. Khakimov, N. H., & Ganiyev, B. S. (2019). THE ROLE OF STUDYING THE STRATEGY OF ACTION IN CHOOSING A PROFESSIONAL DIRECTION (TAKING INTO ACCOUNT THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL QUALITIES) IN STUDENTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 296-303.
10. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. Oriental Journal of Social Sciences, 33-37.
11. Sodikjonovich, G. B. (2020). Social and philosophical aspects of family entrepreneurship development. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1228-1234.
12. ГАНИЕВ, Б., & ГАНИЕВА, М. (2019). РЕЛИГИОЗНО-ИСЛАМСКИЕ И ДУХОВНЫЕ КОРНИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ. ИДЕАЛЫ И ЦЕННОСТИ ИСЛАМА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ, 332.

- 
13. Ganiyev, B. S. (2019). INNOVATIVE (ENTREPRENEURIAL) ACTIVITY OF WOMEN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF OUR SOCIETY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 122-129.
14. Ганиев, Б. С. ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *ILMIY XAVARNOMA*, 51.
15. Ганиев, Б. С. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *ILMIY XAVARNOMA*, 49.
16. Sadigjonovich, G. B., & Umaralievich, K. U. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. *Research Focus*, 1(4), 359-363.